



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buguk
davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2024-yil 20-mart, № 58 (8681)

Chorshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



MEHRU MURUVVATGA YO'G'RILGAN NAVRO'Z SHUKUHI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 19-mart kuni Toshkent shahridagi sanoat va ijtimoiy soha obyektlari faoliyati, mahalladagi obodonlashtirish va bunyodkorlik ishlari bilan tanishdi, bahorgi daraxt ekish tadbirida ishtirok etdi.



Dastlabki manzil Quyuv-mexanika zavodi bo'ldi.

Qirg'ektardan ziyod maydonli bu zavod bir paytlar to'liq ishlamay, past rentabelli bo'lib qolgan edi. Shu bois "O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyati tasarrufiga o'tkazilib, 2013-yilda modernizatsiya qilindi. So'nggi yillarda mahalliyashtirish jadal kengayib, uning iqtisodiy samaradorligi yanada oshdi.

Bugun majmua yiliga 1 ming 200 ta yuk vagoni ishlab chiqarish va 1 ming 500 tasini ta'mirlash quvvatiga ega barqaror korxona.

Vagonlar tarkibi ham talabgir. Jumladan, yarimochiq, usti yopiq, uzun bazali hamda don, sement, mineral o'g'it tashishga mo'ljallangan 6 turdagi yuk vagonlari ishlab chiqarilmoqda.

Metall quyish og'ir sanoatning eng muhim tarmog'i, ta'bir joiz bo'lsa, "yuragi" hisoblanadi. Bu yerda 120 million dollar hisobiga quyuv sexi barpo etilgan. U yiliga 26 ming tonna mahsulotlar

tayyorlashga mo'ljallangan. Bu yerda temir yo'llar eksploatatsiyasi va harakat tarkibida ishlatiladigan barcha turdagi ehtiyot qismlar quyiladi.

Davlatimiz rahbari ushbu mahsulotlarni ko'zdan kechirdi. — Bugungi kundagi eng katta maqsadimiz — ko'proq ish o'rinlari yaratish. Masalan, bu yil mamlakatimizda 100 mingta uy qurmoqchimiz. Ular qachon odamlarga ma'qul bo'ladi? Yonida ish o'rni bilan bo'lsa. Shuning uchun, xuddi tomorqalarda bo'layotganidek, ko'p qavatli uylar bo'yicha ham mahallalarda iqtisodiy loyihalar qilinadi. Qaysi xonadonda ishsiz bo'lsa, bandligiga ko'maklashiladi. Bunda mana shunday zavodlar muhim, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Shu bois majmuada shaharsozlik, kommunal va boshqa tarmoqlar uchun ham mahsulotlar ishlab chiqarish, bu imkoniyatlar bilan tadbirkorlarni tanishtirib, buyurtmalarni ko'paytirish kerakligi ta'kidlandi. Bu, o'z navbatida,

turdosh tarmoqlarda ham ish o'rinlari ochilishiga turtki beradi.

Zavodda yuk vagonlari qurish, mexanika yig'uv, g'ildirak yig'uv, quyuv, ta'mirlash, temirchilik va presslash, tayyorlov va komplektlash kabi 26 ta sex bor. Prezidentimiz majmua bo'ylab yurib, ulardagi ish jarayonini ko'zdan kechirdi.

Korxonada 2018 — 2023-yillarda mahalliyashtirish dasturi bo'yicha 100 ga yaqin turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish o'zlashtirilgan. 2023-yilda jami 267 milliard so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan, 10 million dollarlik 170 ta vagon va ehtiyot qismlar eksport qilingan. Joriy yilda eksport hajmini 15 million dollarga yetkazish bo'yicha shartnomalar imzolangan.

Korxonada xalqaro standartlarga muvofiq ISO 9001 sifat menejmenti va ISO 50001 energetika menejmenti tizimi joriy etilgan.

Shundan so'ng davlatimiz rahbari poytaxtimizning Sergeli tumanida tashkil

etilayotgan Yoshlar bog'iga ko'chat yetkazdi.

Ma'lumki, Prezident tashabbusi bilan 2021-yildan buyon "Yashil makon" umummilliy loyihasi amalga oshirilmoqda. Jumladan, ekologik vaziyatni yaxshilash maqsadida Toshkentning "yashil belbog'i" tashkil etilmoqda. Yoshlar bog'i shu halqaning muhim bo'g'ini bo'ladi.

Davlatimiz rahbariga bog' loyihasi haqida axborot berildi. Uning maydoni 75 gektardan ziyod bo'lib, hududi jihatidan poytaxtimizda "Yangi O'zbekiston" bog'idan keyin ikkinchi o'rinni egallaydi.

Bog' yettita katta hududga bo'linadi. Markaziy xiyobonda turli maydonlar, ming o'rinli ochiq amfiteatr, milliy va xalqaro gastronomik zonalar barpo etiladi.

Ochiq havoda ovqatlanish va qiziqarli mashg'ulotlar uchun alohida joylar bo'ladi. Musiqiy favvoralar, ochiq osmon ostidagi kinoteatr, san'at ko'rgazmalari va lazer-shou imkoniyatlari yaratiladi. Bolalar

uchun sport va o'yin maydonlari, mashhur ertaklardagi qishloqlar, ustaxona, kutubxona tashkil etiladi. Sun'iy ko'l, kanoe va suzish havzasi, baliq ovi dam oluvchilarga huzurbaxsh bo'ladi.

Shu kuni Toshkent shahri jamoatchiligi, davlat tashkilotlari va diplomatik korpus vakillari, yoshlar ishtirokida boqqa ko'chatlar ekildi.

Prezident bog' loyihasida qatnashayotgan investor va loyihachilar, chet ellik diplomatlar bilan muloqot qildi.

— Xalqimiz qayerda bo'lsa, daraxt ekishga intilgan. Amir Temur Samarqand atrofiga so'lim bog'lar barpo etgan, boshqa shaharlarni ham obod qilgan. Buyuk bobolarimizga munosib bo'lib, bu ishlarni qilyapmiz, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Davlatimiz rahbari boqqa kelgan yurtodoshlarimiz bilan suhbatlashib, ularni Navro'z bilan tabrikladi.

Boqqa birinchi bosqichda ming tupdan ziyod kashtan, eman, Sharq chinori, qizil kurtak, magnoliya, gujum kabi manzarali daraxtlar hamda buta va gullar ekiladi. Loyiha yakuniga qadar ularning soni 20 ming tupga yetadi.

Yana bir e'tiborli tomoni, bu bog'da tabiiylik, o'rmon shakli, ekzotik manzara hosil qilinadi. Bog' foydalanishga topshirilishi bilan 350 tadan ortiq ish o'rinlari yaratiladi.

Ayni kunlarda ham hududlarda ko'chatlar ekilmoqda. Umuman, yurtimizda 347 gektar maydonda "yashil hudud", 187 ta vazirlik va hokimlik bog'lari barpo etilgan.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Toshkent yo'lovchi vagonlarni qurish va ta'mirlash zavodini borib ko'rdi.

Mamlakatimizda temir yo'l transporti rivojlanib, qatnovlar soni ko'paymoqda. Bu vagonlarga bo'lgan talabni ham oshiradi. Mazkur zavodda 16 turdagi yo'lovchi vagonlari ishlab chiqariladi va ta'mirlanadi.

O'tgan yili korxonada 32 ta yo'lovchi vagoni tayyorlanib, 319 tasi ta'mirlangan. Muhimi, kooperatsiya orqali ehtiyot qismlarning 70 foizi mahalliyashtirilgan.

Umuman, avvalgi yillarda 300 dan ziyod yo'lovchi va texnik xizmat vagonlari ishlab chiqarilib, 50 dan oshig'i eksportga yuborilgan. Bundan tashqari, 112 ta metropoliten vagoni modernizatsiya qilingan.

Ular 28 yil davomida foydalanishga mo'ljallangan va xalqaro talablarga to'liq javob beradi, yo'lovchilar uchun

har tomonlama qulay, yuqori sifat va xavfsizlikka ega.

Vagonlarda isitish va sovutish tizimlari, havo aylanishi yanada yaxshilangan. Suv isitish uskunasi ham elektr energiyasida, ham ko'mirda ishlashga mo'ljallangan. Yo'lovchilarni toza va salqin ichimlik suvi bilan ta'minlash, telefon quvvatini to'ldirish uchun maxsus moslamalar o'rnatilgan. Bu yerda 619 nafar muhandis-ishchi mehnat qilmoqda.

Prezidentimiz vagonlarga chiqib ko'rdi. Ularning dizaynini o'zgartirish, yo'lovchilarga qulayliklarni oshirish zarurligini ta'kidladi. Elektr poyezdlar tarmog'ini kengaytirib, aholi ko'p tumanlarga olib borish, sohaning alohida generatsiya quvvatlarini tashkil etish bo'yicha topshiriqlar berildi.

Joriy yilda yana yuzlab vagonlarni qurish va ta'mirlash rejalashtirilgan. Bundan tashqari, kon-metallurgiya korxonalari uchun maxsus vagonlar qurish, keng kupeli yangi turlarni o'zlashtirish ko'zda tutilgan.

Shu yerda zavodda rejalashtirilayotgan yangi yo'nalish — elektr va metropoliten poyezdlari loyihasi ko'rib chiqildi.

Shuningdek, Toshkent — Xiva yo'nalishiga qo'yiladigan tezyuror poyezd haqida axborot berildi. Prezidentimiz bu haqda 2022-yilda Xorazmda Jaloliddin Mangubardi haykalining ochilish marosimida aytgan edi. Bu uchun Janubiy Koreyaning "Hyundai Rotem" kompaniyasidan yuqori tezlikdagi elektropoyezd olib kelinishi mo'ljallangan. 7 vagonga ega elektropoyezd 351 o'rindiqqa ega bo'ladi. Soatiga 250 kilometr tezlikda harakatlana oladi.

Poytaxtimizning Yakkasaroy tumanidagi Dilbuloq mahallasiga bu yilgi Navro'z yanada ko'tarinkilik bilan keldi. Davlat-xususiy sheriklik asosida zamonaviy mahalla idorasi qurildi. Ko'p qavatli uylar yo'lga va ichki ko'chalar, yerto'lalar ta'mirlandi. Anhor bo'yi tartibga keltirilib, obod sayilgo'gga aylantirildi. Ishkomlar, nihollar, piyodalar yo'laklari mahallaga ko'rk bag'ishladi.

O'tgan yili kuzda "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida qariyb 4 ming tup daraxt va buta ko'chati o'tqazilgan edi. Shu kunlarda ko'p qavatli uylar oldidagi maydonlarga rayhon, namozshomgul kabi gullar ekildi.



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Matbuot xizmati surati.

O'ZBEKISTON QAHRAMONI ZAYNIDDIN NIZOMXO'JAYEV FAXRIY UNVON BILAN TAQDIRLANDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Farmoniga muvofiq, Markaziy saylov komissiyasi Raisi Zayniddin Nizomxo'jayev davlat hokimiyati vakillik organlari hamda mamlakatimiz sog'liqni saqlash tizimidagi ko'p yillik samarali mehnati, yurtimizda milliy saylov tizimini umume'tirof etilgan xalqaro standartlar asosida takomillashtirish, demokratik islohotlarni muvaffaqiyatli amalga

oshirish, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini ro'yobga chiqarish borasidagi katta xizmatlari, yuksak salohiyatli kadrlarni tayyorlash, yosh avlodni ona Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalashga qo'shgan munosib hisssasi, shuningdek, tavalludining 70 yilligi munosabati bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi" faxriy unvoni bilan taqdirlandi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev Zayniddin Nizomxo'jayevga ushbu yuksak unvon va ko'krak nishonini topshirdi.

Tibbiyot fanlari doktori, professor Z. Nizomxo'jayev uzoq yillar qator mas'ul lavozimlarda fidokorona mehnat qilgan. U 2014-yilda "O'zbekiston Qahramoni" unvoni bilan mukofotlangan.

O'z.A.

TO'QSON YOSHDA E'ZOZ TOPDIM



Yangi O'zbekistonning keksa fuqarosi sifatida hayotimizning tobora go'zallashib borayotganidan, otaxonlar, onajonlari opa-singillar, navqiron va shijoatli o'g'il-qizlar, qo'yingki, shu muqaddas zamanga kindik qoni tomgan inson borki, hammasi e'zozu ehtiromda ekanidan doim boshim ko'kka yetadi. Binobarin, bugun biz yangilanayotgan, yosharayotgan va rivojlanayotgan yurtimizdagi barcha ijobiy o'zgarishlar, izchil islohotlar zamirida inson qadrini ulug'lashdek xayrli a'mol mujassam ekanini yurak-yurakdan his qilib yashayapmiz.

Minnatdorlik

To'qson yillik umrim davomida qanchadan-qancha dovonlarni oshib o'tdim. Xalqimizning inson qadri toptalgan davrlarda o'ksib yashaganiga guvoh bo'lganman. O'zim ham

shunday saboqlarni boshimdan o'tkazganim, yaxshi va yorug' kunlar kelishiga umid bilan yashaganim bugungi dorilamon kunlarda ko'z o'ngimdan o'tmoqda. Gap yurtimizda inson qadri ulug'lanayotgani haqida ketar ekan, buni men bugun yanada yaqqol his etyapman.



Tuyg'u

NAVRO'Z QO'SHIG'I

Sirojiddin SAYYID,
O'zbekiston xalq shoiri.

*Falak bizni bolalardan asradimi?
Yulduzlardan boychechaklar sachradimi?
Bir kurtakka almashtim bor hasratimni,
Olam eski, lekin o'ngu so'lim yangi.*

*Osmon bo'ldi bir kechada horg'in bag'rim,
To'y boshladi chaqinlarim, yomg'irlarim,
Go'yo hozir yaproq yozar tomirlarim,
Go'yo eski qalam tutgan qo'lim yangi.*

*Oylarga ham alishmasman yuzlarini,
Qarang Qo'qon, qarang Surxon qizlarini.
Zulfiyariyu rayhonlarning islarini
Olib kelgan epginlarim, yelim yangi.*

*Ey ko'hna bog', ko'pdir chekkan aziyating,
Qurigan shox, dilda sening vasiyating,*

*Ey sariq barg, qulog'imda nasihating,
Bu yil endi mening gulzor, gulim yangi.*

*Har ko'ngilga bir yangi kuy, qo'shiq bersin,
Imon, insof, diyonatni qo'shib bersin.
Har bir uyga eng avval bir beshik bersin,
Hech bir uyga ko'rsatmasin o'lim yangi.*

*Bormoqdasiz garchi Hindu Xitoylarga,
Umid aylang o'z yeringiz, Xudoylarga,
Uylaringiz to'lsin bu yil bug'doylarga,
G'imirlagan elim, dashtu cho'lim yangi.*

*Lolalardan gar aytmadim, qir aytadi,
Qolganlarin samo aytar, yer aytadi.
Ko'nglim ochsam, har gilyoh bir she'r aytadi,
Rostin aytсам, ko'ksimdagi dilim yangi.*

“YASHIL IPAK YO‘LI” TASHABBUSI

YURTIMIZDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN EKOLOGIK TOZA ENERGETIKA YARATISH YO‘LIDAGI SA‘Y-HARAKATLARGA HAMOHANGDIR

Bir qarashda atrofimizni o‘rab turgan turfa olamdagi bebaho ne‘matlar chek-chegasiz, poyonsizdek tuyuladi. Aslida esa bu dunyoda hamma narsa o‘lchovli. Muqaddas kitoblarda ham tabiat in‘omlaridan foydalanishda tejamkor bo‘lish, isrofgarchilikka yo‘l qo‘ymaslik qayta-qayta ta’kidlab o‘tilgan. Shu bois har birimiz suv, havo, atrof-muhit, o‘simlik, hayvonot olami, daryoyu jilg‘alar, yer va yer osti boyliklariga mehr bilan va tejamkor munosabatda bo‘lishimiz shart.

Keyingi paytda dunyoda sanoat inqilobi bo‘y ko‘rsatib, iqtisodiyotda ulkan o‘zgarishlar yuz berdi. Ammo bu evrilish yer osti boyliklarini ayovsiz qazib olish, havoga muttasil zararli gazlar chiqarish evaziga amalga oshirildi. Tan olish kerak, tabiat har bir “ozor” uchun tovon talab qilishi bor gap. Global iqlim o‘zgarishi, chang-qum bo‘ronlari, suv tanqisligi kabi ulkan muammolar girdobida qolayotganimiz insoniyatning xatolari uchun to‘layotgan “tovoni”, desak, sira mubolag‘a bo‘lmaydi.

Muqobil energiya

Inson va tabiat uyg‘unligi yo‘lida

Hayotimizga va taraqqiyotga raxna solayotgan ekologik muammolar sayyoramizning taqdirini o‘ylaydigan har qanday insonni tashvishlantirmay qo‘lmaydi. Shundan kelib chiqib, jahon hamjamiyati tomonidan global ekologik muammolarga qarshi kurashish va barqaror rivojlanishga erishish yo‘lida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu jihatdan, yurtimizda xalqimiz tomonidan hamjihatlik bilan bajarilayotgan “Yashil makon” umummilliy dasturi ham xalqaro miqyosda e’tirof etilayotir.

Tabiatni asrash borasida O‘zbekiston xalqaro sheriklar bilan keng miqyosdagi hamkorlikni yo‘lga qo‘ygani quvonarli, albatta. Ulardan biri — XXRning “Yashil ipak yo‘li” tashabbusidir. Prezidentimiz 2023-yilning 18-oktabr kuni Pekin shahrida o‘tkazilgan “Inson va tabiat uyg‘unligi yo‘lida “Yashil ipak yo‘li”ni birgalikda barpo etish” mavzuidagi yalpi yig‘ilishda ishtirok etib, muhim tashabbuslarni ilgari surgan edi. “Yashil ipak yo‘li” tashabbusi mohiyatidan umumiy “yashil” kelajak kun tartibini shakllantiradi. XXR Raisi Si Szipin tomonidan ilk bor 2016-yilda aynan bizning mamlakatimizda ilgari surilgan ushbu tashabbusni O‘zbekiston har tomonlama qo‘llab-quvvatlaydi.

Mintaqamizdagi anomal ob-havo sharoitlari, tez-tez yuz berayotgan qurg‘oqchilik va chang bo‘ronlari, yerlarning shiddat bilan degradatsiyaga uchrashi va cho‘llanishi, bioxilmaxillikning yo‘qolishi ko‘rinishida namoyon bo‘layotgan murakkab ekologik vaziyat tufayli Markaziy Osiyo jahondagi iqlim o‘zgarishi oqibatlaridan eng

ko‘p zarar ko‘rayotgan mintaqalardan biriga aylangan.

“Yashil ipak yo‘li” Xitoyning “Makon va yo‘l” loyihasini ekologik jihatdan ham yanada samaraliroq qilishga yo‘naltirilgan. Mazkur loyiha atmosferaga chiqindilar tashlashni kamaytirish, ifloslanishni qisqartirish va bioxilmaxillikni himoyalash, ayni paytda ishtirokchi davlatlar uchun iqtisodiy imkoniyatlarni yaxshilash maqsadlarini qamrab olgan. Tashabbusning qator ahamiyatli jihatlari bor. Birinchidan, u bashariyatning barqaror taraqqiyotiga xizmat qiladi. “Yashil ipak yo‘li”ni BMTning 2030-yilgacha bo‘lgan Barqaror rivojlanish maqsadlari kun tartibidagi ekologik masalalarni yechish borasidagi samarali yechimlardan biri sifatida ko‘rish mumkin.

Ikkinchidan, tashabbus orqali rivojlanayotgan mamlakatlarga ekologiya va tabiatni asrash borasidagi intilishlariga moliyaviy ko‘mak berilishi mumkin. Hozirgi kungacha 40 dan ziyod xalqaro moliyaviy institutlarning “Yashil ipak yo‘li” tashabbusiga qo‘shilgani buning isbotidir. 2019-yil muloqotlar, almashinuvlar, ko‘shma tadqiqotlar o‘tkazish, salohiyatni oshirish maqsadlarida ishtirok etish uchun “Makon va yo‘l”ning “Yashil taraqqiyot” xalqaro koalitsiyasi tuzildi. O‘shandan buyon u 40 dan ziyod mamlakatlardan 150 dan ortiq xitoylik va xorijiy sheriklarni o‘ziga jalb etdi, xalqaro hamjamiyat tomonidan keng qo‘llab-quvvatlovga ega bo‘ldi.

**Quyosh nuri va shamol —
beminnat energiya manbai**
So‘nggi besh yilda Xitoy dunyoda eng ko‘p quyosh va shamol energiyasi

tizimini yo‘lga qo‘ygan mamlakatga aylandi. Bundan tashqari, mamlakat quruqlik va dengizdagi shamol energetik qudratini oshirishdagi yetakchilik pozitsiyasini mustahkamlashda davom etmoqda. Xitoy ekologik toza energiyaga sarmoya kiritayotgan eng yirik davlat va qayta tiklanuvchi energiyaning eng yirik bozori ham sanaladi. 2013-yildan boshlab qayta tiklanuvchi energiyaga kiritilgan Chin sarmoyalari hajmi 53,3 milliarddan 125 milliard dollargacha o‘tdi. Tahlilchilarning hisob-kitobiga ko‘ra, 2040-yilgacha Xitoy jahonda qayta tiklanuvchi energiyaning har to‘rt gigavattidan birini ishlab chiqaradi.

O‘zbekistonda ham bundan besh yil muqaddam qayta tiklanuvchi energiya manbalarini ko‘paytirish bo‘yicha juda katta maqsad va vazifalar qo‘yilib, amaliy ishlar boshlangan. Sohani isloh etish, birinchi galda, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki hamda Osiyo infratuzilimaviy investitsiyalar banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining yetakchi ekspertlari bilan maslahat qilishdan boshlandi. Bir qator qonun hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritish va yangi qarorlarni qabul qilish orqali energetika tarmog‘ida bozor tamoyillariga asoslangan mustahkam qonunchilik bazasi yaratildi. Sohada ma’muriy-buyruqbozlik mexanizmlari va monopoliyadan voz kechilib, zamonaviy boshqariladigan ochiq va shaffof tizimga o‘tili. Xususiy sektor va xorijiy kompaniyalarning kirib kelishi uchun qulay imkoniyatlar yaratildi. Natijada chet ellik investorlarning yurtimizga bo‘lgan qiziqishi va ishonchi keskin oshdi. Ilk bor 100 foiz to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hisobidan Karmana va Nurobod tumanlarida 2 ta quyosh fotoelektr stansiyasi ishga tushirilib, shu kunga qadar 1 mlrd. kVt-soat “yashil” elektr energiyasi ishlab chiqarildi.



Qayta tiklanuvchi energiya bo‘yicha strategik sheriklar ko‘paymoqda

2023-yilning 27-dekabrda esa mamlakatimiz tarixida yana bir yorqin sahifa ochadigan muhim hodisa — umumiy quvvati 2 400 megavatt bo‘lgan oltita yirik quyosh hamda shamol elektr stansiyalari tarmoqqa ulandi. Jumladan, O‘zbekistonning yaqin hamkori Birlashgan Arab Amirliklarining “Masdar” kompaniyasi tomonidan Jizzax, Samarqand va Surxondaryo viloyatlarida uchta quyosh fotoelektr stansiyasining birinchi bosqichi barpo etildi. Bundan tashqari, ushbu kompaniya tomonidan Tomdi tumanida tiklanayotgan zamonaviy shamol stansiyasining bir qismi ishga tushirilmoqda. “Gezhouba” kompaniyasi bilan esa Buxoro va Qashqadaryo viloyatlaridagi quyosh stansiyalarining dastlabki 400 megavattli generatsiyasi boshlanadi.

Eng e’tiborli jihati, ushbu loyihalar davlat-xususiy sheriklik asosida, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hisobidan amalga oshirildi. Umumiy qiymati 2 mlrd. dollarlik bu loyihalar hisobidan yiliga 6 mlrd. kVt-soat elektr ishlab chiqarilib, 2 mlrd. kub metr tabiiy gaz tejalandi. Ikki million xonadon uzluksiz va kafolatli elektr energiyasi bilan ta’minlanadi. Sanoat va xizmatlar sohasida 4 mlrd. dollarlik qo‘shilgan qiymat yaratiladi.

Bizning strategik sherigimiz va yirik saydo hamkorimiz bo‘lgan Xitoy ishtirokidagi loyihalar ilgari tajribada kuzatilmagan juda qisqa muddatda — 9 oy ichida ishga tushirildi. Jahonda ishlab chiqarish zanjiri va logistika bilan bog‘liq muammolar qanchalik murakkab ekaniga qaramasdan, bu borada “Goldwind”, “Sungrow”, “Jolywood”, “Longi”

kabi kompaniyalar bilan samarali ish olib borildi.

Hisob-kitoblarga ko‘ra, kelgusi olti yilda mamlakatimizda elektr energiyasiga bo‘lgan talab hozirgi 83 milliarddan 120 milliard kilovatt-soatga o‘sishi kutilmoqda. Buni, birinchi galda, qayta tiklanadigan energiya hisobidan qoplash mumkin. Boshqa tomondan, O‘zbekiston global muammoga aylangan iqlim o‘zgarishining salbiy ta’sirini yumshatish bo‘yicha tinimsiz izlanaypti. Xalqaro sammitlarda muhim taklif va tashabbuslar faol ilgari surilmoqda. 2023-yil dekabrda Dubayda BMTning Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha konferensiyasi doirasida dunyo mamlakatlari “yashil” generatsiyani uch barobar oshirishga kelishib oldi. O‘zbekiston ushbu tashabbusni to‘liq qo‘llab-quvvatladi va 2030-yilgacha “yashil” energetika manbalarini 27 gigavattga yetkazish uchun faol investitsiya siyosatini izchil davom ettiradi.

Quvonarlisi, mamlakatimizda “yashil” energetika bo‘yicha nihoyatda ulkan salohiyat mavjud. Bu imkoniyatdan unimli foydalanib, uni xalqimiz manfaatlariga yo‘naltirish maqsadga muvofiq. Shuning uchun ham quyosh panellari o‘rnatishga imtiyozli kredit va subsidiyalari ajratish, ishlab chiqarilgan elektr energiyasini kafolatli sotib olish bo‘yicha “Quyoshli xonadon” tizimi yo‘lga qo‘yildi. 2023-yilning o‘zida yurtimizda 50 ming xonadon va tadbirkorlar tomonidan quyosh panellari o‘rnatildi.

Mamlakatimizda 7 milliondan ortiq uy-joylar borligini hisobga olsak, bu investorlar uchun katta bozor, demakdir. Hozirgi kunda global miqyosda “yashil” energiyadan ishlab chiqarilgan mahsulotlarga alohida ustunlik berilayotir. “Yashil energiya” sertifikatini keng joriy qilinmoqda. O‘zbekiston kelgusida aniq reja va qat’iy sa’y-harakatlar orqali “yashil” energiyani Osiyo va Yevropa mamlakatlari

Asosiysi, davlatimiz rahbari kam uglerodli iqtisodiyot va “toza” texnologiyalarni rivojlantirish, shuningdek, mintaq mamlakatlarida yuqori ekologik standartlarni joriy qilish maqsadida O‘zbekistonda “Yashil moliyalashtirish” jamg‘armasini ta’ sis etish taklifini ilgari surdiki, bu ham yurtimizda “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirishga xizmat qiladi. Umuman olganda, “Yashil ipak yo‘li” tashabbusi va Prezident Shavkat Mirziyoyevning uning doirasida bildirgan g‘oya va takliflari insoniyatning “yashil” kelajagini barpo etish yo‘lida muhim hissa bo‘lib qo‘shilishi bilan ahamiyatlidir.

Muhsin HOJIYEV,
Guliston davlat universiteti rektori,
texnika fanlari doktori, professor.

“Jahon chempionati — 2026”

FUTBOLCHILARIMIZ GONKONGGA QARSHI BELLASHADI

Shu kunlarda Xalqaro futbol federatsiyasi (FIFA) tomonidan jahonning turli hududlarida bir qator rasmiy musobaqalar uyushtirilishi ko‘zda tutilgan. Xususan, Osiyo qit‘asida joylashgan mamlakatlar terma jamoalari 2026-yilda AQSH, Kanada va Meksika yashil maydonlarida tashkil qilinadigan jahon chempionatiga chiqish uchun saralash o‘yinlarida ishtirok etadi.

Srechko Katanes murabbiyligidagi O‘zbekiston terma jamoasi ham mintaqamiz 2-saralash bosqichining “E” guruhida navbatdagi ikki bahsini Gonkong vakillariga qarshi o‘tkazishadi. Dastlab 21-mart kuni safarda to‘p



2026
FIFA WORLD CUP
UNITED STATES CANADA MEXICO

suradigan futbolchilarimiz saralashning 4-tur doirasida 26-martda aynan shu raqiblari bilan Toshkentda bellashadi. Ayni paytda FIFA reytingida O‘zbekiston terma jamoasi 66-pog‘onada qayd etilgan, Gonkong futbolchilari esa 154-o‘rindan joy olgan. Ikki mamlakat to‘pleparlari shu kungacha o‘zaro yetti marta to‘qnash kelishgan bo‘lsa, ustunlik yurtimiz futbolchilari tomonida ekanini ko‘rish mumkin. Mazkur bahslarda to‘rt g‘alaba va uch bor durang qayd etilgan. Ya’ni vakillarimiz 10 marotaba gol urgan, o‘z darvozalaridan uch bora to‘p olib chiqishgan. Garchi gonkongliklar Osiyo qit‘asida autsayder maqomidagi terma jamoa bo‘lsa ham S. Katanes Osiyo futbol konfederatsiyasining rasmiy saytiga bergan intervyyusida ularni jiddiy raqib sifatida bilishini aytib o‘tgan.

Jumladan, u “Biz maydonda borimizni berishimiz kerak. Gonkong Osiyo kubogida muvaffaqiyatsiz ishtirok etgan bo‘lsa-da, bu bahs oson kechmaydi. Biz raqibga qaraganda ustundek ko‘rinishimiz mumkin, lekin uchrashuvga tayyor bo‘lmasangiz, futbol sizga kutilmagan “sovg‘a”ni

taqdim qilishi hech gapmas”, deyga fikr bildirdi.

Mazkur uchrashuvga sloveniyalik murabbiy 23 futbolchimizni chaqirgan, ularning 13 nafari legionerlardir.

Darvozabonlar: O‘tkir Yusupov (“Navbahor”), Abduvohid Ne‘matov (“Nasaf”), Botirali Ergashev

(“Neftchi”); **himoyachilar:** Rustam Ashuratov (“Rubin”, Rossiya), Umar Eshmurodov (“Selangor”, Malayziya), Husniddin Aliqulov (“Rizespor”, Turkiya), Abdulla Abdullayev (“Xorfakkan”, BAA), Abduqodir Husanov (“Lans”, Fransiya), Farrux Sayfiyev (“Navbahor”), Akrom Komilov (OKMK), Zafarmurod Abdurahmatov (“Nasaf”); **yarimhimoyachilar:** Jaloliddin Masharipov (“Istiqlol”, Eron), Oston O‘runov (“Persepolis”, Eron), Aziz Turg‘unboyev (“Sivaspor”, Turkiya), Odiljon Hamrobekov (“Navbahor”), Diyor Xolmatov (“Paxtakor”), Abbosbek Fayzullayev (SSKA, Rossiya), Jamshid Iskandarov (“Navbahor”), Hojimat Erkinov (“Al Vahda”, BAA), Otabek Shukurov (“Qayserspor”, Turkiya); **hujumchilar:** Eldor Shomurodov (“Kalyari”, Italiya), Bobir Abdixoliqov (“Nasaf”), Azizbek Amonov (“Xorfakkan”, BAA).

Guruhning ikkinchi bellashuvida Eron — Turkmaniston o‘zaro to‘qnash keladi.

Sunnatilla ISLOMOV
 (“Xalq so‘zi”).

РЕКЛАМА

“FIDO-BIZNES” kompaniyasi jamoasi hamkorlar va hamkasblarni ajoyib Navro‘z ayyomi bilan muborakbod etadi!

Ushbu bahorgi yangilanish bayrami barchamizga quyoshli hamda serfayz kunlar keltirish bilan birga quvonch, omad va yanada rivojlanish bag‘ishlasin!

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko‘chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir T. Eshboyev.
Musahhif S. Ilatomov.

Bosh muharrir O‘tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G 142. 15 736 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. O‘set usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma’lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibxona 71-259-74-53;
e’lonlar 71-259-74-55.

Xalq so‘zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqzir qilinmaydi va ummifiga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun ommaviy rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida teriladi hamda operator M. Begmuratov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas’ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko‘chasi, 41. O‘ZA yakuni — 21.15 Topshirildi — 23.05 **1 2 3 4 5 6**